

## YURAGIDA YO‘LBARS YOTGAN IJODKOR

*M.A.Xalova, F.Sadinov SamDCHTI o‘qituvchilari*

**Annotatsiya.** Maqolada Halima Xudoyberdiyeva lirikasi haqida ma’lumot berilgan. Shoira individual uslubini belgilovchi, badiiy olamining asosini tashkil qiluvchi lirik obrazlar, lirik kechinmalar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ayollar she’riyati, badiiy olam, lirik qahramon, lirik kechinma, ruhiy holat, ijtimoiy dard, individual uslub.

“O‘zbek shoiralari” kitobining muallifi, atoqli adabiyotshunos T.Jalolov “Tuyg‘ular tug‘yoni” maqolasida adabiyot dargohiga kirib kelayotgan Halima Xudoyberdiyeva haqida shunday deb yozgan edi: “Halima o‘zbek ayollar she’riyatida kutilmagan hodisa, ungacha bu san’at koshonasida qandaydir sukunat, osudalik hukm surib, kishini mudroq bosardi. Halima bu dargohga bo‘ron bo‘lib, suron bo‘lib kirib keldi-da, to‘liqib, oshiqib, toshiqib baland pardalarda qo‘shiq boshladi.

Men shunchaki o‘ylagim kelmas,  
Xayol – sharob misol qilsin sarxush, mast.  
Men shunchaki kuylagim kelmas,  
Ovoz pardalarim chidab bersa bas.

Shu satrlar bilan boshlanadigan mumtoz, shiddatkor she’r menga shoiraaning ijodiy, axloqiy, insoniy programmasi bo‘lib tuyuldi. Bu she’r to‘lig‘icha olganda tuyg‘ularning tug‘yoni, jasoratning namoyishidir.

Men sizlarni shu she’rning oxirgi baytlariga e’tibor qilishingizni istar edim:

Shunchaki yozmoqqa, ko‘ngil to‘lmaydi,  
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo‘lim.  
Shunchaki yozganga chidab bo‘lmaydi,  
Shunchaki yozmoq bu – shoirga o‘lim!

Haqiqatan ham shunchaki yozmoq – faqat shoirning emas, adibning ham, olimning ham o‘limidir”<sup>1</sup>. Darhaqiqat, shoira Halima Xudoyberdiyeva ijodida shunchaki yozilgan she’r yuq. Ijodkorning asarlari haqiqiy ilhom va iqtidor bilan dunyoga kelgan.

Halima Xudoyberdiyevaning lirik qahramoni ona, opa, singil, dugona kabi rang-barang qiyofalarning turli ruhiy holat va kayfiyatdagi, turlicha rakursdagi qarashlarning umumlashma siymosidan yaralgan. Bu ayolning zuvalasi eng mayda shaxsiy dardlar bo‘lib ko‘rinadigan masalalardan katta ijtimoiy dardlargacha bo‘lgan hissiyotlar ummonida toblangan, pishgan. Shu bois uning so‘zi, istagi, da’vati qat’iy, dilga yaqin, hayotiy:

Sen so‘rama, men ham aytmayin,  
Kuragimning singanini qars.  
Shovqin solma, men uyg‘otmayin,  
Yuragimda yotar bir yo‘lbars.

Baland bir o‘t yongan ichimni,  
Men sovutib yashashim kerak.  
O‘z-o‘zimga sarflab kuchimni,  
Men ovutib yashashim kerak.

Ayol o‘tib borar, sho‘x yurib,  
Shamollarda soch yoygan ayol.  
Ich-ichida yo‘lbars o‘kirib,  
Sirdan mayin jilmaygan ayol!<sup>2</sup>

Yuqorida Halima Xudoyberdiyeva lirikasining ifoda tarzini tabiiy dedik. Bu tabiiylik uning tevarak atrof, uni qurshagan muhit, tabiat va nabotot olami bilan yaqinligidan, dildoshligidan tug‘ilgan ezgu hosiladir. Shuning uchun bu lirik qahramonning shevasida qo‘llanish darajasi unchalik ham yuqori bo‘lmagan,

<sup>1</sup> Худойбердиева Х. Танланган асарлар. - Т.: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2018. –Б. 6.

<sup>2</sup> Худойбердиева Х. Танланган асарлар. Т.: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2018. – Б.474.

kamdan kam ishlatiladigan yoki deyarli unitilayozgan soʻz, iboralarni uchratamiz: “Otam, deb eslaydi shoira – adabiyotga ixlosmand odam boʻlib, oʻrtoqlari bilan tez-tez yigʻilishib turishardi. Ular chaqchaqlashib suhbat qurib, kitobxonlik qilganlarida uyimizda tongotar bazm boʻlardi. Qiblagohim otam kitoblar qiroatini joyiga keltirib, gʻalati, yurakni larzaga keltiruvchi bir xonish bilan oʻqirdilar. Ijodkor boʻlib, ozgina nimagadir erishgan boʻlsam, buning uchun men, avvalo, oʻz onam Sharofat Xonnazar qizi, otam Ummatqulboy Xudoyberdi oʻgʻlining, keyin onaizorim Qarshigul Xonnazar qizining poyiga bosh qoʻyib, koʻnglimni izhor qilmogʻim lozim”.

Ikki yoshida onasi Sharofat opa hayotdan koʻz yumib, boʻlgʻusi shoiraga xolasi Qarshigul Xonnazar qizi onalik qiladi.

“Es-es bilaman, – deydi shoira, – Qarshigul aya kechalari chiroq yorugʻida qarsillatib, qilich solib, pat toʻqir, men u kishining yonida oʻtirib, basma-bas patning turini chalishardim. Pat gilamning gulini biror joyi buzilmay chiqayotganini koʻrgan onam “oʻzimni chevar qizim” deb peshonamdan oʻpib qoʻyar va koʻngillari iyib ketsa, oʻzining qattiq boshidan kechgan bir-yarim voqealarni hikoya qilib berardilar. Mening anchagina asarlarim, shulardan “*Bir oʻrim soch tarixi*”, “*Sayram baxshi aytimlari*”, “*Hindikushdan nola keldi*” sheʼrlarim, “*Ilinj*” dostonim aynan onaizorim taʼsirida bitilgandir.”

Tashqi koʻrinish jihatidan shoira sheʼriyati ayollar sheʼriyatiga xos sokin, nazokatli koʻrinsa-da, uning ichki mohiyatida shiddatli va qudratli boʻron yashaydi, bezavol va qaysar ruh oʻzligidan darak berib turadi:

Shovqin solma, men uygʻotmayin,

Yuragimda yotar bir yoʻlbars.

Shu bois boʻlsa kerak, bu lirikada “*burgut*”, “*yoʻlbars*”, “*ot*” ramzlariga qayta-qayta murojaat qilinadiki, bu ramzlar ulugʻvorlikning, ichki qudratning, shijoat va erkning timsollari boʻlib gavdalanadi.

Mazkur sheʼrni muallifi kimligini bildirmasdan oʻqitsangiz hech bir sheʼrxon buni ayol kishi bitgan deb oʻylamaydi. Yaʼni, undagi “Kuragimning singanini qars”, “Ich-ichida yoʻlbars oʻkirib” kabi iboralar, ifodalar ayollar sheʼriyatiga

unchalik ham xos va mos emas. Zulfiya, O.Hojiyeva, G.Jo'rayeva, G.Nurillayeva, X.Bobomurodova yoki boshqa ayol shoirlar uslubida bunday erkak ijodkorga xos ifoda tarzini uchratmaymiz. H.Xudoyberdiyeva she'rlarini o'qigan zukko kitobxon ayollar adabiyoti degan tushuncha bir qadar nisbiy ekanligiga amin bo'ladi. T.Jalolov bekorga "Halima ayollarning Abdullasi", - deya lutf qilmagan. H.Xudoyberdiyeva sokin kuylashga majbur bo'lgan ayol, ona dardlarini zamonaga muvofiqlashtirdi, ilmiyroq qilib aytganda, modernizatsiya qildi desak to'g'riroq bo'lar.

Chindan ham, shoira she'riyatini sirti tinch, sokin oqayotgan daryoga o'xshatish mumkin. Uning tublaridagi po'rtana va girdoblar, nishabliklardagi shiddat va tezlik kitobxonni mu'tadil muvozanatda qolishiga yo'l qo'ymaydi. Mazkur she'rlardagi urug'-mikrosujet shiddat bilan rivojlanadi, poetik fikr parvozinini ta'minlaydi, psixologik asos banddan bandga o'tgan sari yangi sifat bosqichiga ko'tariladi. G'oyaviy yuk ba'zan naqorat kabi takrorlanuvchi har bir bandning oxirgi misrasiga, ko'p hollarda esa yakunlovchi bandga yuklanadi.

Keyingi yillar adabiyotshunosligida mumtoz mohiyat va zamonaviy she'riyatning aloqadorligi masalasida muayyan qarashlar bildirilmoqda. Shu nuqtai nazardan shoira lirikasiga e'tibor qaratsak, hozirgi she'riyat va mumtoz sharq she'riyatlararo ma'lum robitalar davom etib kelayotganiga guvoh bo'lish mumkin. Abdulla Oripov ta'biri bilan aytganda, Halima Xudoyberdiyevaning she'rlaridagi vatanparvarlik jonfidolik, mardonavorlik ma'nolariga uyqash. Sababi tevarak-atrofdan kechgan yo kechayotgan voqea-hodisa, insoniy munosabatlarning baland-pasti, shaxsning, ijtimoiy hayotning qon tomirlarida bo'y ko'rsatayotgan holat, ruhiy kechinma, o'zgarish, yangilanishlarning barcha-barchasi, eng avvalo, lirik qahramon qalbida aks-sado beradi. Shu sababdan bu lirikada ba'zan publitsistik pafos ham ko'zga tashlanib qoladi.

Umuman bugungi adabiy jarayonda, jahon xalqlari adabiyotida ham she'riyatga "sof lirika" nuqtai nazaridan qarash udumdan qoldi. Chunki bugungi she'riyatning qiyofasini turli uslublarning montajidan yaralgandek taassurot qoldiradigan qorishiq, sintetik janr talablari belgilab bermoqda. Masalan, yetuk

soʻz sanʼatkorlari Andrey Voznesenskiy, Svetlana Alekseyevich, Mo Yan ijodida ham shunday uslub belgilarini koʻrishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Раҳимжонов Н. , Ҳамидова.Ҳ. Ҳ.Худойбердиева лирикаси. Т.: Фан, 2004.
2. Шукуров Н. ва бошқалар. Адабиётшуносликка кириш. Т.: “Ўқитувчи”, 1984. – 269 б.
3. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Т.: “Янги аср авлоди” нашриётиб 2006. – 545 б.
4. Худойбердиева Ҳ. Танланган асарлар. Т.: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2019.- 435 б.
5. Aslanova, H. (2020). The concept of features of «Beauty» in the creative heritage of Gadoi. JOURNAL of CRITICAL REVIEWS (ISSN-2394-5125. Vol 7. ISSUE 15.2020. SCOPUS Q4, 6 H index), 2672-2676.
6. Abduraximovna, A. H. (2021). REFLECTION OF MYSTICAL-EDUCATIONAL IDEAS IN GADOI LYRIC. Thematics Journal of Social Sciences, 7(5).
7. Abdurakhimovna, A. H. (2018). ACQUIRING PROFICIENCY IN CREATING SYMBOLS AND LITERARY ART IN GADOI’S POETRY. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 274.
8. Мамирова, Д. Ш. (2020). РЕКЛАМА МАТНЛАРИНИНГ ТИЛ ХУСУСИЯТЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
9. Mamirova, D. S. (2022). ADVERTISING IS A SOCIO-LINGUISTIC STUDY AS AN OBJECT. ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ, 109.
10. Mamirova Dilnoza Shirinboyevna (2022). FEATURES OF ACCOUNT WORDS IN ADVERTISING TEXTS. Science and innovation, 1 (JSSR), 151-154. doi: 10.5281/zenodo.7299742.
11. Pardaeva, I. M. (2014). ON THE EXAMPLE OF THE ARTISTIC AND HISTORICAL PROSE OF NAVOI IN TURKISH. The Way of Science, 73.

12. Пардаева, И. (2020). Ғоя, бадиият, таркиб ва тартиб. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 74-77.

13. Каримова, С. (2021). Зебуннисобегим ше“ риятида илоҳ ва мажоз тушунчаси. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 16-23.

14. Каримова, С. (2021). Ҳиндистон форсий адабиёти тарихи. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (79)), 25-30.

15. Каримова, С. (2021). Форс–тожик тилидаги янги адабиётда ҳиндий сабк. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 23-26.

16. Каримова, С. (2020). Зебуннисобегим шеъриятида бадий санъатлар. Иностранная филология: язык, литература, образование, (4 (77)), 18-22.

17. Каримова, С. (2020). Зебуннисобегим ва моҳларойим нодира шеъриятида тасаввуфий-ирфоний қарашлар талқини. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (76)), 17-21.

18. Каримова, С. (2020). Машхур шарқ шоираси зебуннисобегим. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 12-14.